

Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul haqoyiq" asari va uning didaktik xususiyatlari

O'g'iloy Valijon-qizi Xamidova
Ilmiy maslahatchi: M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarining didaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan ilm-ma'rifiy g'oyalar, axloqiy fazilatlar hamda komil inson qanday bo'lishi kerakligi haqida bir qancha ma'lumotlar beriladi. Buyuk adibning pand-nasihat uslubi, tarbiyaviy qarashlari va asarning bugungi kundagi ahamiyati ilmiy uslubda talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yugnakiy, ahloq muallimi, Hibat-ul haqoyiq, didaktika, tarbiya, ahloq, pand - nasihat, komil inson, mumtoz adabiyot

Ahmad Yugnakiy's work "Hibat-ul-haqoyiq" and its didactic features

O'g'iloy Valijon-kizi Khamidova
Scientific advisor: M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the didactic features of Ahmad Yugnakiy's work "Hibat-ul-Haqoyiq". The scientific and educational ideas, moral qualities, and some information about what a perfect person should be presented in the work are given. The great writer's style of advice, educational views, and the significance of the work today are interpreted in a scientific manner.

Keywords: Ahmad Yugnakiy, teacher of ethics, Hibat-ul-Haqoyiq, didactics, education, ethics, advice, perfect person, classical literature

O'rta asr turkiy adabiyotining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Ahmad Yugnaki o'zining "Hibat ul-haqoyiq" asari orqali ma'rifiy va axloqiy fikrlarini bayon etgan. Ushbu asar pand-nasihat ruhida yozilgan bo'lib, unda inson kamoloti, ilmning fazilati, odob va ahloq, shuningdek to'g'ri hayot kechirish masalalari yoritiladi.

Didaktik adabiyotning asosiy maqsadi - insonni tarbiyalash, unga to'g'ri yo'l ko'rsatish va jamiyat uchun foydali shaxs qilib shakllantirishdir. "Hibat ul-haqoyiq" asari ham aynan shu ruhda yozilgan ma'rifiy mumtoz asardir.

XII asr oxiri - XIII asr birinchi yarmida yashab ijod qilgan, " Ahloq muallimi" deya ta'rif bera olishimiz mumkin bo'lgan adib Ahmad Yugnak deb atalgan joyda dunyoga kelgan. Otasining oti Mahmud Yugnakiy bo'lgan. Kitobining nomi arabcha bo'lib, "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfası") asari bilan mumtoz adabiyotda o'ziga xos o'rin tutgan. Ulug' shoir va mutafakkir Adib Ahmad Yugnakiyning tarjimayi holi haqida juda oz ma'lumotlar mavjud.

*Adib Ahmad otim, adab-pand so'zum,
So'zum munda qolur, borur bu o'zum I.*

Ahmad Yugnakiyning "Hibat- ul haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfası") dostoni asosan pandnoma yo'lida bitilgan badiiy jihatdan yetuk asar. " Hibat ul haqoyiq" ning asosiy nusxalari Turkiya davlatidagi kutubxonalarda, ayrim qismlari esa Germaniyaning Berlin shahrida saqlanmoqda. Xazal va to'rtlik she'r shaklida yozilgan. Adib Ahmad Yugnakiy o'z asarini Allohni madh etish bilan boshlaydi.

Behad hamd ayturman senga, Iloho,
Rahmatingdan umid qilib avvalo.

Ilmiy ishlar davomida bu asar atroflicha o'rganib chiqilgan, shuningdek 1972-yilda filologiya fanlari doktori, qadimshunos, turkolog olim Qozoqboy Maxmudov " Hibat ul haqoyiq" asarini akademik nashrini chop ettirgan. Olim ushbu jarayonda asarning asliy va nasriy bayonini, tahliliy matnini va izohli lug'atini hamda grammatik, fonetik tahlilini amalga oshirgan.

Shoir xalq maqollari, el ichida yurgan mashhur so'zlarni ham mahorat bilan misralar qatiga singdirib yuboradi. Masalan, qu- yidagi misralarda "Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi" maqolidan o'zining badiiy maqsadini ifodalash uchun foydalanadi:

*Jafo qildachingg'a yonut qil vafo,
Arimas necha yuvsu qon birla qon (74).*

Mazmuni shundayki : "Jafo qilganga ham vafo qil, chunki qonni qon bilan yuvib ketkazib bo'lmaydi".

Bundan ayonki, bu pand-u nasihatlar xuddi bugungi kunda biz o'rganishimiz kerak bo'lgan hislatlarni jamlaganday. Barcha davrlarda qimmatini yo'qotmay kelgan bu teran o'gitlar dunyo turguncha o'z ahamiyati va ta'sir kuchini yo'qotmasligi shubhasiz. Barkamol, durdona asarlarning barhayotligi shunda ko'rinadi.

So'ng kegingi bo'limlarida komil inson uchun pand nasihatlar bir qator tartib bilan ta'riflab ketilgan. Keyingi bo'limlarda siz "Tilni tiyish va odob ahloq haqida", "Dunyoning o'zgarib turisi haqida", " Saxovat va baxillikning oqibati haqida ko'plab ma'lumotlar va ularning tahlilini o'qishingiz mumkin.

Xulosa qilib aytishim mumkinki, Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari turkiy mumtoz adabiyotning muhim didaktik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Asarda ilm-ma'rifatni ulug'lash, johillikni qoralash, axloqiy poklik va komil inson g'oyasini targ'ib etish asosiy o'rinda turadi. Muallif pand-nasihat uslubi orqali

insonni ma'naviy yetuklikka, halollik va adolatga chorlaydi. Shu jihatdan, "Hibat ul-haqoyiq" asari hozirgi zamonamiz yoshlari va bo'lajak pedagog umuman olganda barcha ilm yo'liga chiqqan talabalar uchun o'z qiymatini badiiy hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan muhim omil sifatida qo'llanilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Maxmudov, "Hibat-ul haqoyiq" Toshkent. 2020.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.
11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. Technical Science Integrated Research, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(6), 8-11.

13. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. Перспективы науки и образования, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. Science and Education, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. Science and Education, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. Science and Education, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. Science and Education, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. Telematique.-2022.-S, 7128-7131.
25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. Science and Education, 1(4), 216-222.
26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. Академические исследования в современной науке, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.